

JISMONIY MADANIYAT –BOLALARDA YUQORI KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Mardonova Muhabbat Kenja qizi

*NavDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishining ahamiyati, jismoniy madaniyat nafaqat inson jismoniy rivojlanishiga, balki axloq va tarbiya, bolaning ijtimoiylashuvi, rivojlantiruvchi soha kompetensiyalarning takomillashuviga ta'siri haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, maktabgacha yosh, sport, ta'limiy vazifa, tarbiyaviy vazifa, sog'lomlashtiruvchi vazifa, jismoniy mashq, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение физического развития дошкольников, влияние физической культуры не только на физическое развитие человека, но и на нравственность и воспитание, социализацию ребенка, развивающую сферу на совершенствование компетенций.

Ключевые слова: физическая культура, физкультура, дошкольное воспитание, спорт, воспитательная задача, воспитательная задача, оздоровительная задача, физические упражнения, воспитание.

Abstract: This article discusses the importance of the physical development of preschool children, the impact of physical culture not only on the physical development of a person, but also on ethics and education, socialization of the child, improvement of competencies in the developing sphere.


Keywords: Physical Culture, physical education, preschool age, sports, educational task, educational task, health-improving task, physical exercise, upbringing.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hayotini qiziqarli o'yinlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ba'zilar zukkolik, boshqalarda tasavvur va ijodkor rivojlanadi, lekin ularni umumiy vazifa birlashtiradi – bolaning harakatga bo'lgan ehtiyojini va hayotni hissiy idrok etishni tarbiyalash. Harakatlanayotganda bola dunyoni va o'zini o'rganadi, unda harakat qilishni va maqsadli harakat qilishni o'rganadi. Sport bayramlarini o'tkazish, bo'sh vaqtni maroqli tashkillashtirish, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qilishda bolalar faolroq, mustaqil va tashabbuskor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jismoniy tarbiya – jismoniy barkamollikka erishish maqsadida harakat ko‘nikmalari hamda ruhiy-jismoniy xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda unga umuminsoniy hamda milliy-madaniy qadriyatlarni yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojiga munosib hissa qo‘shib, uning ruhiy, ma‘naviy, axloqiy taraqqiyotiga asos bo‘ladi. Shuningdek maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar orasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlar, do‘stlik, mehribonlik, insonparvarlik, oqibat, saxovat kabi xususiyatlarni yanada mustahkamlaydi. Bundan kelib chiqib, quyidagi vazifalar hal etiladi:

- ❖ bolalarda yuqori axloqiy, irodaviy, jismoniy fazilatlar tarbiyalanadi;
- ❖ o‘quvchi yoshlar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash vazifasi amalga oshiriladi;
- ❖ bolalarning bo‘ljak kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya tashkil etiladi;
- ❖ bolalarga jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi, amaliyoti bo‘yicha bilimlar bazasi shakllantiriladi.

Jismoniy madaniyat 3 ta muhim vazifani bajaradi:



Ta'limiy vazifalar quyidagilar: Yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqa harakatni tabiiy malakalarini mustahkamlash va takomillashtirishda, shuningdek gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari va kross tayyorgarligi mashg'ulotlarida egallagan malakalaridir.

Tarbiyaviy vazifalarga quyidagilar tegishli: Jismoniy sifatlarni tarbiyalash (tezlikni, chaqqonlikni, chidamlilikni, kuchni, egiluvchanlikni), jamoatchilikni rostgo'ylik va boshqa axloqiy, shuningdek irodaviy sifatlarini kamol toptirish kiradi.

Sogʻlomlashtirish vazifalariga quyidagilar kiradi: bolalar organizmini normal shakllantirish va rivojlantirishga yordam berish hamda uni salomatligini mustahkamlashdan iborat.⁸

Jismoniy tarbiya amaliyotida shaxsni har tomonlama rivojlantirish ikki asosiy yoʻnalishda olib boriladi:

1. Jismoniy tarbiya umumiy tarbiyaning boshqa tomonlari bilan uzilmas aloqasi (aqliy, axloqiy, estetik, mehnat)
2. Jismoniy mashqlarning har tomonlamaligi bilan (umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning birligi, organizmning shakl va funksiyasi rivojlanishi, jismoniy sifatlar, harakat qila bilish va malaka hosil qilish).

Jismoniy mashqlar mashgʻulotida, ayniqsa, bolalar bilan majburiy dastur asosidagi mashgʻulotni yoki yosh sportchilarning trenirovkasini, albatta axloqiy tarbiyadan ajratilmaydi. Faqat shu yerda jamoatchilik (kollektivizm), vatanparvarlik, qatʼiylilik, botirlik va sofdillik, shaxsning maʼnaviy va jismoniy sifatlari namoyon boʻladi. Jismoniy mashqlar mashgʻulotlarga estetik tarbiyaning ham manbayi sifatida xizmat qilishi kerak. Asta-sekin shakl goʻzalligi, harakat goʻzalligi tushunchasidan axloqiy, maʼnaviy goʻzallik tushunchasiga, oʻzaro muomala tushunchasiga oʻtmoq zarur. Bularning hammasi pedagog tomonidan tarbiyaviy ishlarning qanday qoʻyilishiga bogʻliq.⁹

⁸ Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy-tatqiqotlar jurnali . 21-son 20.07.2023 Milliy oʻyinlar yordamida maktab oʻquvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish .Mamatov Avaz Agzamovich 232-bet

⁹ Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti .Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalari uchun oʻquv qoʻllanma „OʻQITUVCHI“ Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008 32-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy-tatqiqotlar jurnali . 21-son 20.07.2023 Milliy o‘yinlar yordamida maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish. Mamatov Avaz Agzamovich 232-bet
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti .O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma “O‘QITUVCHI” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008 32-bet
3. Qodirova F.R., Kadirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T.: Istiqlol, 2006.
4. E.G‘oziev. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1990.
5. O.Қ.Мусаев Олий ўқув юрти ўқитувчисининг педагогик қобилиятлар комплекси. Методик қўлланма. Тошкент-2016
6. К.Маҳкамджонов, Л.Иноземсева, Ф.Нурматов, Л.Рустаниов Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси (дарслик).Т. «Иқтисод-молия» 2008